



Kubayev Ro'zimurod Hikmatillayevich

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti 2-kurs magistranti

Abstract: This article is devoted to a comprehensive analysis of the historical essence of the Eastern Renaissance and the role of the Seljuk Empire in its development. The study examines, on a scholarly basis, the processes of political centralization, socio-economic stability, and the rise of the cultural and intellectual milieu that emerged during the Seljuk rule in the 11th–12th centuries. Particular attention is given to state support for science and education, especially the institutional development of intellectual life through the network of madrasas founded by Nizam al-Mulk. Furthermore, the scientific legacy of prominent thinkers who lived and created during this period is evaluated as a crucial component of the Eastern Renaissance. The article interprets the Seljuk Empire as a significant historical factor in the formation and advancement of the Eastern Renaissance and elucidates its role within the broader framework of Islamic civilization on the basis of scholarly conclusions.

Keywords: Seljuk Empire, Eastern Renaissance, political stability, scientific environment, Nizam al-Mulk, Omar Khayyam, Imam al-Ghazali, madrasa system, Islamic civilization.

Annotasiya: Mazkur maqola Sharq Renessansi jarayonining tarixiy mohiyati hamda uning rivojida Saljuqiylar davlatining tutgan o'rnini kompleks tarzda tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda XI–XII asrlarda Saljuqiylar hukmronligi davrida yuzaga kelgan siyosiy markazlashuv, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va madaniy muhitning yuksalishi ilmiy asosda yoritiladi. Ayniqsa, davlat tomonidan ilm-fan va ta'lim tizimining qo'llab-quvvatlanishi, xususan, Nizomulmulk asos solgan madrasalar tarmog'i orqali ilmiy tafakkurning institutsional rivojlanishi tahlil etiladi. Shuningdek, mazkur davrda yashab ijod qilgan mutafakkirlarning ilmiy merosi Sharq Uyg'onishining muhim komponenti sifatida baholanadi. Maqolada Saljuqiylar davlati Sharq Renessansining shakllanishi va rivojlanishida muhim tarixiy omil sifatida talqin etilib, uning islom sivilizatsiyasi doirasidagi o'rni ilmiy xulosalar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Saljuqiylar davlati, Sharq Renessansi, siyosiy barqarorlik, ilmiy muhit, Nizomulmulk, Umar Hayyom, Imom G'azzoliy, madrasalar tizimi, islom sivilizatsiyasi,

Аннотация: Данная статья посвящена комплексному анализу исторической сущности Восточного Ренессанса и роли государства Сельджуков в его развитии. В исследовании на научной основе освещаются процессы политической централизации, социально-экономической стабильности и подъёма культурно-интеллектуальной среды, сформировавшиеся в период правления Сельджуков в XI–XII веках. Особое внимание уделяется государственной поддержке науки и системы образования, в частности институциональному развитию научной мысли через сеть медресе, основанную Nizam al-Mulk. Кроме того, научное наследие мыслителей, живших и творивших в этот период, рассматривается как важнейший компонент Восточного Возрождения. В статье государство Сельджуков интерпретируется как значимый исторический фактор формирования и развития Восточного



Ренессанса, а его место в рамках исламской цивилизации раскрывается на основе научных выводов.

Ключевые слова: *Государство Сельджуков, Восточный Ренессанс, политическая стабильность, научная среда, Низам аль-Мульк, Омар Хайям, Аль-Газали, система медресе, исламская цивилизация.*

Saljuqiy hukumdorlar dastlab dasht an'alariga xos agressiv va yovvoyi xislatlari bilan alohida ajralib turgan. Davlatchilik rivoji va yangi o'lkalar madaniyati bilan tanishuv sa'nat, ma'daniyat va shaharsozlik rivojini boshlab berdi. Saljuqiylar davrida sa'nat va ma'daniyat yuksalishida islom dini o'rni beqiyosdir, undan tashqari dasht ko'chmanchilarini o'troq ma'daniyati bilan tanishib borishi va madaniyatlar qorishuvi rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqdi. O'sha davr tarixchilari Saljuqiy sultonlari fors va arab madaniyati bilan tanishgach ularni o'z saroyida jamlaganlar va ularni sharafiga ko'plab she'riy misralar bitilgan.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy shunday deydi: barcha Saljuqiy sultonlari she'riyatni sevishgan, va ularning madaniy homiyligining eng barqaror yodgorligi – bu saroy uchun yozilgan forscha she'rlarning keng va boy to'plamidir.[1] Bundan ko'rinadiki Saljuqiy sultonlar saroylarida shoirlarga yaxshi sharoitlar yaratib berilgan. Imperiya o'zining she'riyat bilan shug'ullanayotgan shoirlar uchun boy imkoniyatlar yaratgan edi. Chunki homiylilikni nafaqat sulton va amaldorlar (amirlar she'riyatni nisbatan kamroq homiylilik qilgan ko'rinadi), balki Saljuqiylarga tobe bo'lgan turli hududiy saroylar — maliklar saroylari ham ta'minlardi.

Shoirlar faqat Saljuqiylar hududida emas, undan tashqaridagi saroylar o'rtasida ham erkin harakat qilishgan. Tug'rul hukmronligi davridayoq, Faxr al-Din Gurgoniy va Baxarziy kabi fors va arab shoirlari sultonni maqtab she'rlar yozganlar, garchi u bu she'rlarni tushunmagan bo'lsada. Tug'rul III esa o'zi ham mohir forsiy shoir sifatida tanilgan. Saljuqiylar Xuroson va Eronni o'zlariga markaz qilib olganlar va fors madaniyati bilan tanishuv turk, arab va fors madaniyati uyg'unlashuviga olib kelgan.

Forsiy til, adabiyot va madaniyat asta-sekinlik bilan arab tilini surib chiqara boshladi. Saljuqiy tangalaridagi tasvirlarda forsiy-turkiy an'nana uyg'unlashgan tasvirlar uchraydi. Qadimgi forsiy va turkiy an'nalar uyg'unligi keyinchalik Eronda hukmronlik qilgan Safaviy, Qojar kabi sulolar ramzlarida "sher va uning tepasidagi quyosh" ko'zga tashlanadi. Bu tasvir Rum Saljuqiylari tanglarida ko'zga tashlanadi. Keyingi sulolalardan farqli o'laroq, Saljuqiylar sulolasi dunyoviy nasriy adabiyot, masalan, tarixga nisbatan uncha katta qiziqish ko'rsatmagan ko'rinadi. Ilgari tilga olingan "shohlar uchun pandnoma" asarlaridan tashqari, boshqa ko'pgina nasriy janrlar diniy yoki byurokratik doiralar tomonidan va ular uchun yaratilgan.

Tahlil va natijalar: Saljuqiylar sulolasining intellektual homiyligi yo'nalgan muhim soha bu — ilm-fan edi. Ilm-fan va madaniyatga e'tibor haqiqatan ham shunday bo'lganini o'sha zamonda yashagan buyuk olimlar, shoirlar faoliyati ham tasdiqlaydi. Bahoviddin Abubakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Umar Hayyom. Abulhotam Muzaffar Isfizoriy, Zahiriddin G'aznaviy kabi handasachilar,

yulduzshunoslar, riyoziyotchilar, Sharaf az-zamon Muhammad Iloqiy, Sayyid Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy kabi tabiblar, kimyogarlar, Mu'iziy, Anvari, Sobir Termiziy, Asiriddin Axsikatiy, Rafiy Marvaziy kabi yirik shoirlar shular jumlasidandir. Odatdagidek, ular o'z zamonlarining barcha ilmlaridan xabardor bo'lganlar.

Bu yo'nalishdagi eng mashhur vakil — Umar Xayyom (taxminan 439/1048–517/1123) bo'lib, u ingliz tilida so'zlashuvchi auditoriyaga Edward Fitz Gerald tomonidan tarjima qilingan ruboiylari orqali mashhur bo'lgan. Biroq, o'z davrida Umar Xayyom ko'proq olim, faylasuf, astronom va matematik sifatida tanilgan. U Malikshoh tomonidan Isfahonda astronomik rasadxona tashkil etish uchun yollangan olimlar jamoasining bir qismi bo'lgan.[2]. Malikshoh va uning vaziri Nizomulmulk davlatida iqtisodiy sharoit yaxshilangan davrda 30 yoshli Umar Xayyom (1040-1123) taniqli astronom edi. Uni 1074-yili sasoniylarning shamsiy taqvimi (kalendari)ni isloh etish uchun tuzilgan guruhga rahbarlikka taklif qilishadi. Umar Xayyom bu ishni bajarib, devonning ilmiy va davlat ishlariga taklif qilinadi. Bu taklifni Umar Xayyom rad etsa ham Nizomulmulk unga yiliga 1200 tuman haq berib, ilmiy va adabiy faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratib bera oldi. Umar Xayyom faoliyatiga nazar tashlasak juda yuqori ishlar amalga oshirgan. Uning rahbarligida rasadxona loyihasi tayyorlanib, u qurib bitkazilgach, undagi izlanishlar orqali Malikshoh buyrug'iga ko'ra taqvim yaratiladi.

Bu voqeani Umar Xayyom o'zining "Navro'znoma"asarida quyidagicha eslaydi:"Bir vaqtlar Seiston amiri Xalaf ibn Ahmad boshqa kabisa joriy qilgan va bu davrgacha o'sha vaqtdan o'n olti kunlik farq yuzaga keladi, Saodatmand va din tayanchi Sulton Malikshoh Alloh ruhini shod etsin bundan xabar topib eski kabisana joriy eting va yilni o'z joyiga qaytarishga buyurdi. Buning uchun o'sha zamondagi Xuroson olimlarini chaqirtirdi. Ular kuzatish uchun barcha ishlarni bajardilar, devorlar ko'tarishdi, usturlab o'rnatdilar va shunga o'xshash ishlarni amalga oshirib, Navro'zni farvardinga ko'chirdilar. Ammo zamona podshohga bu ishni oxiriga yetkazishga imkon bermadi va kabisa tamomlanmay qoldi." [3]. Malikshoh o'limidan keyin taqvimni Umar Xayyom oxiriga yetkazgan, biroq bu taqvim Grigoriy kalendaridanda yuqori aniqlikka ega bo'lishiga qaramasdan, amalda hayotga tatbiq etilmasdan qolgan. Bu davrda yashagan saroy tarixchilari Saljuqiylar saroylarida ilm-fanga e'tibor yaxshi bo'lgan va saroyga ko'plab ilm ahli jalb etilib, tizimli ish olib borganlar. Bu haqida Nizomiy Aruziy Samarqandiy ta'kidlaganidek, to'g'ri tashkil etilgan saroy tarkibiga kotiblar, shoirlar, munajjimlar (astrologlar) va tabiblar kirgan, va bu haqiqatda ham amaliyotda shunday bo'lgan ko'rinadi. Saljuqiylar sulolasining bir necha a'zolari yulduzlar bilan bog'liq fanlarga kuchli qiziqish ko'rsatganlar. Saljuqiylar davrida ilm-fanga yuksak e'tibor berilgan bo'lsada ammo Saljuqiylar saroyining asosiy homiyligi aynan astronomiya va tibbiyot kabi amaliy fanlarga qaratilganligini taxmin qilish mumkin.

Bunga Umar Xayyomning quyidagi shikoyati dalil bo'la oladi:"Bizning davrimizda boshqa aqliy fanlar qadrlanmayapti".[4] Umar Hayyom bu bilan Saljuqiylarda Matematika, Geometriya va shunga o'xshash fanlarga e'tibor kamligidan tashvishlangan. Shunga qaramay o'sha davrda Nizomiya madrasalaridan yetuk ilm-fan vakillari juda ko'p yetishib chiqqanlar.



Obodonchilik va qurilish borasida Saljuqiy hukumdorlar ixlosi juda yuqori musulmon hukumdorlar bo'lganlar, buni ko'plab sultonlar bunyod etgan me'moriy obidalar (garchi yetib kelmagan bo'lsada, o'sha davrda yaratilgan asarlar orqali ularning dong'i bizgacha yetib kelganligi)dan bilishimiz mumkin. Sultonlar bunyodkorlikda doim peshqadamlikka intilganlar. Sultonlardan tashqari Saljuqiylar davlati me'mori Nizomulmulkning faoliyati tahsinga sazovordir. U har yili din vakillari uchun 300 ming dinor ehson qilgan. U turklarni iqtido bilan ta'minlagan birinchi odam hisoblanadi.[5] Uning vazirgi davrida Xuroson va Iroqning ba'zi noxiyalarida "Nizomiya" nomi bilan mashhur bo'lgan ko'plab madrasalar barpo ettirgan.⁷ Hatto ularda talabalarga stipendiyalar taqdim etilgan. O'sha davrlarda Isfahon, Nishopur, Balx, Hirot, Basra, Tus, Amul kabi markazlarda ham Bag'dod Nizomiyasining namunasi asosida madrasalar tashkil etilgan. Ularning dars dasturlari va yo'nalishlari, aslida, butun Islom olamiga, hatto Usmonlilar davrigacha ta'sir ko'rsatdi. Ushbu madrasalarning boshida turgan va dars bergan ustozlarga "mudarris" deyilardi. Nizomulmulkning vaqfiyasiga ko'ra, madrasalarda mudarrislardan tashqari, bir voiz, kutubxonachi, Qur'on o'qishni o'rgatuvchi muallim hamda arab tilini o'rgatuvchi nahv ilmi bo'yicha mutaxassis ham faoliyat yuritgan. Yirik madrasalarda mudarrislik lavozimi nihoyatda muhim edi. Agar bu lavozimda mashhur bir olim ishlayotgan bo'lsa, talaba yoshlar uzoq-uzoqlardan kelib, uning bilan birga ilm olishni xohlashardi. O'sha davrda dini ta'lim beruvchi Saljuqiylar madrasalarida Qur'on, fiqh, tafsir, hadis, nahv (arab tili grammatikasi), sarf (so'z yasalishi), til va adabiyot kabi fanlar o'qitilgan. Madrasalarning xarajatlarini qoplash uchun vaqflar (xayriya mulklari) ajratilgan. Nizomulmulk esa asosiy vaqf harajatlarini va ehsonlariga pulni Rum va Qoraxoniylar hukmdorlaridan keladigan o'lponlar hisobidan ajratgan. Nizomulmulk o'z davrining o'ta kuchli siyosatchisi bo'lish bilan bir qatorda, mamlakatning iqtisodiy va ma'naviy qiyofasini ko'ra olgan va rivojlantirishga juda katta hissa qo'shgan siymolardan biri bo'lgan. Saljuqiylar sulolasi juda katta boyliklarga ega bo'lishi, mamlakatni har tomonlama yuksaltirish imkonini bergan.

Saljuqiylar sulolasi O'rta va Yaqin Sharqqa Sunniylik himoyachilari sifatida kirib kelganlar. Avvalgi tadqiqotlarda Saljuqiylar shi'a mazhabidagi Buyiylar hukmronligidan so'ng yuzaga kelgan "sunniy uyg'onish"ning yetakchisi sifatida talqin etilgan bo'lsa, so'nggi yillarda bu fikr o'rnini XI–XII asrlarni "sunniylikni markazlashtirish" davri sifatida baholashga bergan. Bunga ko'ra, ulamo sinfi sunniylikni har jihatdan bir xilda, yagona ko'rinishda shakllantirishga intilgan, ayniqsa bu maqsadda madrasalar kabi muassasalar vositasidan keng foydalangan.[6]. Sunniylikka bo'lgan e'tibor Saljuqiylarni bu ta'limotni yoyishga harakatlari bevosita qurilish ishlarida madrasa va masjidlariga ehtiyojni keltirib chiqargani va qurilishning yanada kengayishida muhim omil bo'lgan desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Undan tashqari Saljuqiylar harbiy me'morchilik va mudofaa inshootlari qurishga katta e'tibor berganlar. Ular qurilish uslubi mahalliy an'analar bo'yicha davom ettirilavergan. Bugungi kunda Saljuqiylar merosi ko'p qismi bizga yetib kelmagan bo'lsada,

⁷ Islom olamidagi birinchi to'liq tashkil topgan madrasa 1066-yilda Sulton Alp Arslon tomonidan Bag'dodda qurilgan. Dajla daryosi bo'yida bunyod etilgan. Bu madrasa 60 ming dinor (oltin) sarflanib, devoriga "Nizom ul-Mulk" deb yozilganligi sababli Nizomiya nomi bilan mashhur bo'ldi. Unga bozorlar, hammomlar va yer-mulklar (vazifasi uchun) vaqf qilingan edi. (qarang: I. Kafesoğlu, „Selçuklu tarihi, İstanbul: Millî eğitim basımevi, 1972. B.175)

aynan shu davrga oid manbalar va arxeologik topilmalar asosida Imperiyani ichki, tashqi, siyosiy va madaniy ahvoli haqida yetarlicha farazlarga egamiz.

Xulosa: Saljuqiylar sulolasi islom Sharqi tarixida tub burilish yasagan siyosiy va madaniy kuch sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Ularning XI–XIII asrlarda olib borgan faoliyati musulmon dunyosining siyosiy, diniy, ilmiy va badiiy hayotiga uzoq yillar ta'sir ko'rsatdi. Ular o'z davrining nafaqat harbiy va siyosiy yetakchilari, balki sivilizatsiyaviy taraqqiyotga yo'l ochgan madaniy homiylari ham bo'lgan. Saljuqiylar musulmon Sharqini birlashtirgan ilk yirik turkiy sulola sifatida, xalifalik nomidan, ammo mustaqil amalda hukmronlik qildilar. Nizomulmulk singari siymolar davlat boshqaruvi va siyosiy nazariya sohalarida mustahkam mafkuraviy asoslar yaratdilar. Shuningdek, ular sunniylikni himoya qilish va diniy birlikni ta'minlashda faol bo'lib, shi'a siyosiy ustunligiga barham bergan, sunniy islomni davlat mafkurasi darajasiga ko'targanlar. Bu jihatdan ular sunniy uyg'onish harakatining asoschilaridan biri sifatida qaraladi. Saljuqiylar davri – ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, tasavvuf va san'at sohalarida g'oyat yuksalgan bir davr bo'ldi. Ular: Nizomiy madrasalari orqali ulamolar, faqihlar, mutakallimlar va faylasuflar avlodini yetishtirdilar. Xuroson, Isfahon, Rayy, Nishopur va Bag'dod kabi shaharlarda ilmiy markazlarni qayta tikladilar. Tasavvuf harakatining rivojlantirib, maktablar yaratib, tasavvuf vakillari uchun xonqoh, madrasa va rabotlarning keng tarqalishiga sabab bo'ldilar. Fors adabiyoti va she'riyatini qo'llab-quvvatlab, Umar Xayyom, Nizomiy, Anvari, Xusrav Dehlaviy, kabi ijodkorlarning shakllanishiga yo'l ochdilar. Me'morchilikda g'ishtli konstruksiyalar, to'rt-ayvonli hovlilar, muqarnasli gumbazlar, monumental portallar bilan ajralib turadigan "Saljuqiy uslub"ni yaratdilar. Marv, Nishopur, Ray, Isfahon va boshqa shaharlarda juda katta obodonchilik ishlarini olib bordilar. Kitob san'ati, xattotlik va Qur'on bezaklarida "gilam sahifalar" uslubidagi betakror namunalarni keltirib chiqardilar. San'at va hunarmandchilikda Saljuqiylar nafaqat zargarlik, metall o'ymakorligi va sopol ishlov berishda yuksak texnik usullarni rivojlantirdilar, balki bu ishbilarmonlikni shahar ziyolilari va savdogarlar homiyiligiga tayangan mustahkam urban madaniyatiga aylantira oldilar. Saljuqiylar turkiy, forsiy va islomiy madaniyatlar chorrahasida turgan sivilizatsiyaviy kuch bo'lib, "Eronga oid" madaniy dunyoning shakllanishida asosiy o'rin tutdilar. Ular asos solgan madaniy tamoyillar keyinchalik Xorazmshohlar, Elxoniyalar, Temuriylar va Usmonlilar davrida davom etdi va boyitildi. Saljuqiylar nafaqat o'z davrining siyosiy yetakchilari, balki madaniy uyg'onish va islomiy intellektual tiklanishning homiylari sifatida esda qoladilar va XIV-XV asr Temuriylar davridagi Sharq Renessansining boshlanishida ham Ular qoldirgan meros muhim maktab bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Nizami. Arūḍī of Samarqand. Chahār Maqāla (Four Discourses)Abridged translation of Mīrzā Muḥammad's notes to the Persian text Trans by Edward G. Browne, London.: Cambridge University Press,1921. - P. 48



2. Aydın Sayılı. The Observatory in Islam. Ankara.: Turk tarih kurumu basimevi. 1988. – B. 161-163
3. Umar Xayyom. Navro‘znoma. - T.: Mehnat, 1990. - B. 17-18
4. Vaqar Ahmed Rizvi “Umar Khayyam as a Geometrician – A Survey”// Islamic Studies, 24 (1985). - P. 193
5. Sadriddin al-Husayniy „Axbor ad davlat as saljuqiya T.”Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”2018. B.87
6. For the classic demolition of the ‘Sunni revival’ thesis, see G. Makdisi, The Sunni Revival in D. Richards (ed.), “Islamic Civilisation 950–1150. Oxford.: Oxford University Pr, 1973. - P. 155